

JINOYATDA ISHTIROKCHILIK UCHUN JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Fatullayev Shodmonbek Madatovich

<https://orcid.org/0009-0000-5784-5723>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11095954>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlikni takomillashtirish masalalari va bugungi kunda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyat, ishtirokchilik, javobgarlik, Sud-tergov harakatlari, ijtimoiy xavflilik, jazo, jinoyat qonunchiligi.

ISSUES OF IMPROVING RESPONSIBILITY FOR PARTICIPATION IN CRIME

Abstract. This article provides information on the issues of improving responsibility for participation in crime and the work being done in this regard today.

Key words: Crime, participation, responsibility, Judicial-investigative actions, social danger, punishment, criminal law.

ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА УЧАСТИЕ В ПРЕСТУПЛЕНИИ

Аннотация. В статье представлена информация по вопросам совершенствования ответственности за участие в преступлении и работе, проводимой в этом направлении на сегодняшний день.

Ключевые слова: Преступление, участие, ответственность, Судебно-следственные действия, общественная опасность, наказание, уголовный закон.

Sud-tergov harakatlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, aksariyat jinoyatlar bir guruh shaxslar tomonidan sodir etiladi. Shu o'rinda, ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan jinoyatlar ko'p hollarda bir necha kishilarning birlashishi orqali sodir etilishini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Shubhasiz, bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoridir, chunki bir kishi tomonidan sodir etilgan qilmishdan ko'ra, bir guruh shaxslar tomonidan amalga oshirilgan jinoyat tufayli ijtimoiy munosabatlarga ko'proq zarar yetkaziladi.

Jinoyat kodeksining 27-moddasiga ko'ra: «Ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik, deb topiladi».

Jinoyat sodir qilishda ikki yoki undan ortiq shaxsning qatnashishi ishtirokchihknинг son belgisidir. Bu belgining asosiy sharti shundan iboratki, jinoyat ishtirokchilikda sodir etilganda, ishtirokchilarning barchasi aqli raso va shu jinoyat uchun qonunda belgilangan yoshga yetgan bo'lishi talab qilinadi.

Amaldagi jinoyat kodeksi talbiga ko'ra, jinoyatda ishtirokchilik deganda - ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi tushuniladi.

Jinoyatda ishtirokchilikning bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi kabi turlari bor:

jinoyatni bevosita sodir etgan shaxs - bajaruvchi;

jinoyatga tayyorgarlik ko'rlishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs - tashkilotchi;

jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs - dalolatchi,

jinoyat sodir etilishiga ko'maklashgan, shuningdek, jinoyatchini jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni yashirishga, shuningdek, bunday narsalarni olish va o'tkazish to'g'risida oldindan va'da bergen shaxs - yordamchi hisoblanadi.

Jinoyatda ishtirokchilik oddiy ishtirokchilik, murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruhi, jinoiy uyushma shaklida bo'ladi, 2 yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi - oddiy ishtirokchilik, oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok etishi - murakkab ishtirokchilik deb topiladi.

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat har doim qasddan sodir etilib, subyektiv tomondan ishtirokchilarning ijtimoiy xavfli xususiyatdagi oldindan ogohlantirilganligi, ularning birgalikdagi faoliyati, ruhiy tomoni esa, kuchlarni birlashtirish asosida jinoiy natijaga erishish yoki unga ongli ravishda yo'l qo'yilishida ifodalanadi.

Har bir jinoyat ishtirokchisi sodir etilgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi. Unga nisbatan jazo tayinlashda sud jinoiy javobgarlikni jinoyatning og'irligi, ayb darjasasi va jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfliligiga mos kelishini hisobga olishi lozim bo'ladi. Bu sud jazo tayinlashda sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfliligini, ish holatlari va aybdor shaxsini, jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

Ishtirokchilik institutini tahlil qilishda, birgalashib jinoyat sodir etgan barcha shaxslarning harakatini o'rganish lozim. Bunda har bir ishtirokchi tomonidan sodir etiladigan harakatning xususiyati, jinoiy kuchlarning muvofiqlashganligi, ular o'rtasidagi aloqadorlikning qat'iyligi asosiy element hisoblanadi. Aynan shu element majmuyi ishtirokchilikda sodir etilgan qilmish darajasini belgilashga asos bo'lib, shu orqali jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyat-huquqiy kurash chorasi belgilashga imkon beradi. Bugungi kunda nafaqat ishtirokchilikda jinoyat sodir etish bilan bog'liq balki barcha turdag'i sodit etilayotgan oldini olish uchun O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiysi tasdiqlandi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev imzolagan "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda shunday deyiladi.

Hujjatga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va vazifalari etib quyidagilar belgilandi.

- jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish;
- jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish;
- fuqarolar huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining ta'sirchan va ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlash;
- jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va uyg'unlashtirish;
- jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- jinoyat protsessining yangi shakl va tartib-taomillarini kiritish.

Bundan tashqari, jinoyatni ishtirokchilikda sodir etilgan deb topish uchun unda qatnashgan ikki yoki undan ortiq shaxslarning barchasi jinoyat subyekti bo'lishi kerakmi yoki yo'qmi degan savol munozarali bo'lib, ko'pgina olimlar bu borada o'z fikrlarini bildirib o'tganlar.

Jumladan, M.Usmonaliyevning fikricha, agar jinoyatda faqat ikki kishi bajaruvchi sifatida qatnashib, ulardan biri o'sha jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetmagan yoki aqli noraso bo'lsa, jinoyat ishtirokchilikda sodir etilgan deb hisoblanmaydi¹.

M.H.Rustambayevning fikricha, bir nechta shaxs ishtirok etgan ijtimoiy xavfli qilmish faqat unda qatnashgan kamida ikki nafar shaxsning qonunga ko'ra jinoyat subyekti belgilariga ega bo'lganidagina jinoyatda ishtirokchilik deb topilishi mumkin. Shu bois Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lman yoki aqli naroso shaxslardan foydalanib jinoyat sodir etish jinoyatda ishtirokchilikni tashkil etmaydi².

Demak, yuqoridagi fikrlarga ko'ra, ishtirokchilik uchun jinoiy javobgarlik, jinoyat sodir etishda ikki va undan ortiq, aqli raso, JK 17-moddasida belgilangan yoshga to'lgan shaxslarning birgalashib harakat qilishi natijasida vujudga keladi. Jinoyat sodir qilishda qatnashgan ikki shaxsning biri javobgarlik yoshiga yetmagan yoki aqli noraso bo'lsa, bu jinoyat ishtirokchilikda sodir qilingan deb topilmaydi degan xulosaga kelish mumkin.

Aqli raso shaxs deganda, jinoyat sodir etish vaqtida o'z harakatlarining (harakatsizligining) ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va ularni boshqara olgan shaxs aqli raso shaxs tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 28-moddasining 2-qismida bajaruvchi tushunchasi berilgan bo'lib, unga quyidagicha ta'rif berilgan: «Jinoyatni bevosita to'la yoki qisman sodir etgan yoxud ushbu Kodeksga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lman shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib, jinoyat sodir etgan shaxs bajaruvchi deb topiladi». Ushbu qismning mazmuniga ko'ra, jinoyatni bevosita bajargan shaxsning o'ziga emas, balki javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lman (jinoyat subyekti yoshiga yetmagan yoki aqli noraso shaxslardan) foydalanib jinoyatni amalga oshirish ham bajaruvchi deb topiladi. Shuningdek, jismoniy shaxs hisoblanmaydigan vositalardan (hayvonlardan, boshqa texnika vositalaridan) foydalanib jinoyatni amalga oshirgan shaxs ham bajaruvchi deb topiladi. Bajaruvchilarni jinoyat ishtirokchisi deb topish uchun ikki undan ortiq shaxslarning barchasi jinoyat qonunida nazarda tutilgan yoshga yetgan, aqli raso bo'lgan bo'lishi, ya'ni jinoyat subyektining barcha belgilariga ega bo'lishi kerak.

Lekin, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining —Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g'ayritabiyy usulda qondirishga doir ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risidalgi 2010 yil 29 oktyabrdagi 13-sonli qarori 12-bandidagi —jinoyat ishtirokchilaridan biri qonunga ko'ra jinoyat subyekti bo'lman hollarda ham ikkinchi ishtirokchining harakatlari guruh tarkibida sodir etilgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim deb ko'rsatilgan.

Zamonaviy xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda, shuningdek, mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida

¹ <https://library-tsul.uz/zhinoyat-tarkibi-usmonaliev-m-2006-2/>

² https://openlibrary.org/authors/OL1439575A/M._Kh_Rustambeva

xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yetta ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqilishi so‘nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratilganidan dalolat beradi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, jinoyat qonunchiligidagi ishtirokchilik tushunchasi bo‘yicha ikki xil yondashuv vujudga kelmoqda. Birinchi yondashuvda, jinoyat sodir etishda ishtirok etadigan shaxslar jinoyat subyektlari bo‘lishligi, agar jinoyat sodir etishda ikki nafar shaxs ishtirok etib, ularning biri jinoyat subyekti bo‘lmasa ishtirokchilik kelib chiqmaydi degan qarash. Ikkinci yondashuvda, jinoyat sodir etishda ikki shaxs ishtirok etib, undan biri jinoyat subyekti bo‘lmasa ham jinoyat subyekti hisoblangan shaxsning harakatlarini ishtirokchilik deb baholash lozimligi haqidagi qarash.

Jinoyat qonunchiligi bo‘yicha ishtirokchilik deganda, ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi tushuniladi. Ushbu tushuncha bo‘yicha jinoyat sodir etgan shaxslarning jinoyat subyekti bo‘lishi kerakligi yoki kerak emasligi ko‘rsatilmagan.

Shunday ekan qilmishni ishtirokchilikda sodir etilgan deb topish uchun jinoyat sodir etgan shaxslar jinoyat subyekti bo‘lishi talab etilmaydi.

Agar jinoyat sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortishni istisno qiladigan ruxiy kasal shaxsdan foydalanib sodir etsa, uning harakatlarini ham ishtirokchilik deb baholash lozim bo‘ladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish ishtirokchilik lozim bo‘ladi.

Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Jinoiyat kodeksi 27-moddasini qo‘yidagicha taxrir etish lozim, —Illi yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi.

Shuningdek, shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan shaxslardan foydalanib, birgalikda jinoyat sodir etishda ishtirok etishi ishtirokchilik hisoblanadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022 — 2026-YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723 sonli qarori//<https://lex.uz/docs/-3735818#-3736684>

3. 2018-yil 28-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. // O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi //lex.uz.
4. <https://library-tsul.uz/zhinoyat-tarkibi-usmonaliev-m-2006-2/>
5. https://openlibrary.org/authors/OL1439575A/M._Kh_Rustambaev